

**MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA AQLIY
TARBIYA BERISHNING VAZIFALARI**

Jo'rayeva Mohinur Yoqub qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 1-22-guruuh talabasi

Tel:90 745 33 27

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni bilimlarni egallab olishlari uchun aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy bilim, ko'nikma va malakalarini egallab olishlari, ularning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishlari uchun imkoniyat yaratib beriladi. Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning o‘rni katta. Bolalarning bilimlar zaxirasini kengaytirish, aqliy faolligini va mustaqillagini rivojlantirish, maktabda yaxshi o'sishi, keyingi mehnat faoliyatini amalga oshirishda katta yordam beradi.

Kalit so‘zlar: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq, aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarash

Bola 6-7 yoshdan boshlab maktabga o'tishi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlantirish yetarli bo'lismeni ta'minlash tarbiyachidan katta ma'suliyatni talab etadi. Maktabgacha ta’lim yoshida bilim tez sur’atda rivojlanib , boyib boradi. Nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so‘ng mashg‘ulotlar, bilim berish orqali amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagি bolalarni aqliy tarbiyalshning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish.

2. Bilimlarga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur va nutq. Bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir.

3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantiradi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, aqliy sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bolalarda bilishga doir qiziqishni orttiradi.

4. Aqliy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ya'ni eng oddiy faoliyat usullari predmetlarini tekshirish ulardagi muhim va muhim bo‘lmagan belgilarni ajratib ko‘rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha yoshdagи bolalarga aqliy tarbiya berishning vazifalaridan biridir. Bu ko'nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, bolaning bilimlarni chuqur egallab olishlariga yordam beradi.

Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmay, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni rivojlantirishga katta yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, ularning ruhiyati, shaxsiy qobiliyatlar , intilish va ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga , mustaqillik g'oyalariga sodiq qolgan holda voyaga yetishni ta'minlash, ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablari asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarining bajarilishiga erishish "Bolajon" tayanch dasturi asosida amalga oshadi.

Har bir oila barkamol avlodni tarbiyalash uchun qayg'urishi lozim. Shu sababdan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Sog'lom avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlarini yengillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Davlat va jamiyat maktabgacha yoshdagi bo'lgan bolalarni yagona talab asosida rivojlantirish talabi qo'yildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga integral tarzda bilim berish davlat dasturiga kiritildi. Shu boisdan mamlakatimizda endigina ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash lozim. Bu tayanch dasturlari bugungi kunda maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalariga jalb etilmagan 3milliondan ortiq bolani rivojlantirish va ularni yagona dastur asosida maktab ta'limiga tayyorlash asosiy vazifa qilib qo'yildi.

Ta'lim -tarbiya jarayoning yakunida mustaqil fikrlaydigan, erkin muloqot qila oladigan, bir so'z bilan aytganda barkamol avlodni tarbiyalash asosiy vazifa etib qo'yildi. Bu esa mamlakatimizda uzlucksiz ta'lim tizimini kengaytirish, har tomonlama yetuk shaxs qilib farzandlarimizni tarbiyalash demakdir.

Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, u davlat va jamiyat, ota -onaning zimmasida bo'ladi, uning sog'lom voyaga yetishi, aqilli, chiroyli, yaxshi xulqli bo'lishi yuqorida aytib o'tganlarimiz zimmasida bo'ladi.

Bu ko'nikma, malakalarni bilish bolani bilimlarni chuqr egallashiga yordam beradi.

Pedagogika, psixologiya fani aqliy tarbiya asoslarini samarali hal etish uchun birinchi navbatda, bolaning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish imkonini beradi.

Ikkinchı navbatda, bola organizmining charchashiga sabab bo'ladigan ortiqcha zo'rayish bo'lmasligi kerak degan fikrga keldi.

To'g'ri tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina aqliy rivojlanish jarayoni ro'y beradi.

Shu sababli pedagoglarning maqsadi- muayyan maqsadlarni ko'zlab ,tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoitlarni yaratib bolalarni aqliy faoliyatini rivojlantirishlari lozim. Aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali so'ngra mashg'ulot o'tkazish orqali so'ng bilim berish orqali oshirib boriladi.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning o'rni benihoya kattadir. Chunki, bolani bilim egallab olishlari, aqliy faoligini rivojlantirish, aqliy malaka va ko'nikmalarini egallab olishlari mакtabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun bolalarni mehnat faoliyatiga tayyorlash uchun zamin yaratadi.

Bilamizki, maktabgacha ta'lim, bola 6-7yoshga yetguncha oilada hamda davlat va nodavlat ya'ni (davlatga qarashli bo'lman) ta'lim muassasalarida ta'lim oladi.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-bolalarni xalqning boy milliy, madaniy tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlarasi asosida aqliy va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash.

-bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish.

-maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga bo'lgan qiziqishni, intilishni shakllantirish, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash.

-bolalarning tafakkurini rivojlantirish, erkin fikrlash va mustaqil ravishda muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

-bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash jarayonlarini yo'lga qo'yadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari yasli va maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar guruhlariga bir xil yoshdagi , shuningdek turli xil yoshdagi bolalarni qamrab oladi.

Guruhlardagi bolalar soni quyidagicha belgilanadi:

1-yoshdan 2yoshgacha -10ta

2-yoshdan 3yoshgacha -15ta

3-yoshdan 6-7yoshgacha -20ta

Turli yosh guruhlarida -15tagacha bolalar tarbiyalanadi.

Xulosa

Bolalarda aqliy faoliyat dastlab muomala orqali so'ng mashg'ulot so'ngra bilim berish orqali olib boriladi. Bola har doim buyumlar, hodisalar orasida bo'ladi. Doimo biron narsa bilan tanishadi, biron narsani olib o'ynaydi, nimanidir olib ko'radi, ushlab ko'radi, nimagadir quloq soladi, shu orqali dunyoni o'rganadi. Tevarak atrofdagi buyum va narsalar bolalarning sezgi organlariga, analizatorlariga ta'sir etadi va sezgi hosil bo'ladi. Sezgi bolalarga ayrim xossalarni bilib olishlariga yordam beradi. Bolada aqliy

malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, eng oddiy faoliyat usuli narsalarni tekshirish, va ulardag'i muhim va muhim bo'limgan belgilarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi "2017-2021yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sun qarori.-O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami"2017 yil 9 yanvar, 1-son, 11-modda.
2. Mirziyoyev SH. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T."O'zbekististon.2017
3. Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari:-T.-2017.
4. Falsafa qomusiy lug'at. T. -"Sharq.NMAK , 2004-496 bob
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. J. II. T-:"O'zbek milliy ensiklopediyasi ".Davlat milliy nashriyoti. 2006-672 bob.